



MUSIQA SAN'ATIDA CHOLG'U ASBOBLARINING AHAMIYATI

Rametullaeva Gulparshin

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti,

Pedagogika fakulteti Musiqa talimi yo'nalishi

4 -kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7246749>

ARTICLE INFO

Received: 5th October 2022

Accepted: 15th October 2022

Online: 25th October 2022

KEY WORDS

Cholg'u ijrochiligi, sozanda, orkestr, tembr, diapazon, dutor, rubob.

ABSTRACT

Ushbu maqolada musiqa cholg'u asboblari haqida keng tushuncha beriladi. Xalq cholg'u asboblarning shakllanish jarayoni izohlanadi. Milliy cholg'u asboblarning madaniyatimizda tutgan ahamiyati haqida fikr yuritiladi.

Musiqa bu alohida tovushlar tizimini ifodalovchi ritmik asar. Musiqa yaratilishi uchun bir qancha jarayonlar talab etiladi. Ijro jarayoni ham yaxlit bir tizim sifatida ahamiyatlidir. Musiqani ijro etishda musiqa cholg'u asboblariidan foydalaniladi. Musiqa cholg'u asboblari musiqiy yoki alohida jarangdor ovozlarning tizimi. Ular ma'lum bir ritmik tuzilmalarni shakllantirish uchun mo'ljallangan. Asosan musiqa yakka va jamoaviy tarzda ijro etiladi. Musiqa cholg'u asboblarning har biri ma'lum bir diapazon tovushlar tizimi va ifodaviy imkoniyatlarga ega bo'lib hisoblanadi. Ularning imkoniyatlari ishlab chiqarilgan materialga bog'liq. Musiqa cholg'u asboblari asosan yog'och, bambuk, metall kabi ashyolardan tayyorlanadi. Tayyorlangan mahsulotning sifatini ashyolar ta'minlab beradi. Musiqa cholg'u asboblari xalq va orkestr ijrosidagi turlarga bo'linadi. Orkestr cholg'ulari bastakorlar tomonidan yaratiladi va ko'p sonli ijrochilar tomonidan kuylanadi. Orkestr bir necha musiqa asboblari yaxlit jamlanmasini tashkil etadi. Xalq cholg'ulari

millatning yagona musiqa ijrosi uchun qo'llaniladi. Xalq cholg'u asboblari eramizdan avvalgi sakkiz ming yillikda paydo bo'lgan.

Cholg'u asboblarning paydo bo'lishi ham ibtidoiy jamoa tuzumlari va ularning faoliyati bilan chambarchas bog'liq. Ma'lumki, ibtidoiy davrda insonlar ov jarayoni orqali o'z turmush tarzlarini shakllantirgan. Mehnat qilish, ov jarayonlari bilan bog'liq ravishda musiqiy jarayon paydo bo'lgan. Cholg'ulardan dastlab urma zarbli cholg'ular paydo bo'lgani ma'lum. Xalq ustalari tomonidan qamish poyasidan surnay, nay va shiqildoqlar yasashi shovqinli cholg'ular rivojlanishiga o'z ta'sirini o'tkazdi. Hozirgi davrdagi nay musiqa asbobining ko'rinishi oldingi davrdagi nusxasidan biroz farq qiladi. Cholg'u asboblari jo'rligida marosimlarda qo'shiq va xalq kuylari ijro etilgan.

O'zbek xalq cholg'u asboblari keng tarqalgan turi naydir. Nay cholg'usi O'rta Osiyo va Yevropa mamlakatlarida ham keng tarqalgan. Nomlanish jihatidan ham nay turlicha ko'rinishlarga ega. O'zbekiston,



Tojikiston hududida nay ko'rinishida, Xitoyda esa li shaklida ataladi. Nay yakka ijroda ham, orkestr ijrosida ham birdek qo'llaniladi. Asosan maqom ijrochiligida alohida ahamiyatga ega. Tuzilish jihatidan olti teshikcha va tovushqatorlarga ega. Barmoqlar orqali teshikchalarning galma-gal berkitilishi orqali kuy hosil bo'ladi. Bu jarayonda puflash yo'li bilan baland-past tovushlar shakllantiriladi. Nayning umumiy uzunligi 500-600mmni tashkil etadi. Nay 2 holatda ijro etiladi ya'ni uni tik turgan holatda ham o'tirgan holatda ham chalish mumkin.

Surnay o'zbek va tojik millat xalqlari o'rtasida keng ommalashgan puflab chalinuvchi musiqa asbobi. Ovoz jihatidan juda baland tembrga ega. Shu boisdan ham turli tantanalarda ovoz kuchaytirish vositalarisiz chalinadi. Xomashyo sifatida surnay uchun o'rik daraxti yog'ochidan foydalaniladi. Qo'shnay bir qancha murakkabliklarga ega bo'lib, bu haqida Al-Forobiy o'z risolasida keng tushuncha berib o'tgan. O'zbekistonda Ahmadjon Umurzoqov, Ashurali Yusupov va Bahrom Sobirov kabi mashhur qo'shnay ijrochilari o'zining yuksak mahoratiga ega bo'lgan.

Karnay uzunligi 2 metrdan ziyod, puflab chalinadigan musiqa asbobi. Karnayning ovozi juda baland darajada bo'ladi. O'zbek millatining to'y-tomoshalari karnay-surnaysiz o'tmaydi.

G'ijjak birmuncha qadimiy cholg'u asbobi hisoblanadi. Asosan O'rta Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan. G'ijjakning o'zgargan shakli qobiz cholg'u asbobi qoraqalpoq va qozoq xalqlarida keng tarqalgan bo'lib, hozirgacha ijroda qo'llaniladi.

Doira asosan o'zbek, tojik va uyg'ur xalqining cholg'u asbobi. Doira zarb bilan urib chalinishi tufayli ahamiyatlidir. Asosan

o'rik va yong'oq daraxti yog'ochidan yasaladi. Doirada tovush qo'l barmoqlari yordamida yuzaga keladi. Chalinishi asosiy 2ta zarbdan iborat; bak-bum. Barmoqlar harakati orqali tovushlarni cho'ziq va qisqa shaklda chalish mumkin.

Rubob torli cholg'u asboblardan biri. Yaratilishiga ko'ra ancha qadimiy. Hozirgi kunda rubobning 3ta xili uchraydi. Qashqar rubobi uzunligi 80-100smni tashkil etadi. Afg'on rubobi dastak rezonator va gajaklardan iborat. Odatda dastak uzunligi 8-10sm, rezonatorning uzunligi 80 smgacha bo'ladi. Pomir rubobi bir qarashda qashqar rubobiga o'xshaydi. Dastak qismi ko'rinish jihatidan kaltaroq bo'ladi.

Tanbur- mumtoz musiqa ijrosida qo'llaniladigan asosiy musiqa asbobi. Asbobni chalish bir qancha murakkab jarayon ya'ni o'ng qo'l ko'rsatkich barmog'iga maxsus mediator taqqan holda chalinadi. Tanburning zamonaviylashtirilgan turlari estrada ijrochiligida keng qo'llanilib kelinmoqda.

Do'mbira- torli musiqa asbobi. Asosan o'rik va archa daraxtidan yasaladi. Do'mbira ijrochiligi voha tomonlarda, Qashqadaryo, Surxondaryo va Samarqand viloyatlarida keng rivojlangan. Do'mbira doston va termalarni kuylashda foydalaniladi ya'ni do'mbira baxshilarning asosiy ish qurolidir. Baxshilar do'mbiraning har xil o'lchamdagi shakllaridan foydalanishadi. Do'mbirani qirg'iz va qozoq xalqlarida ham uchratish mumkin.

Dutor so'zi tojik tilidan olingan bo'lib, "ikki tor" degan ma'noni anglatadi. Dutor o'zbek, qoraqalpoq, uyg'ur, tojik xalqlari uchun sevimli cholg'u asbobi bo'lib xizmat qiladi. Dutor 2qismdan iborat: dastasi va kosasi. Dutorning umumiy uzunligi 1200-1300mm atrofida bo'ladi. Yunus Rajabiy



dutor ijrochiligi bo'yicha katta mahorat egasi bo'lgan sozandalardan biridir.

Chang ko'p torli cholg'u asbobi. O'zbekistonda trapetsiya shaklidagi zamonaviy shakli uchraydi. Tovush-qatorlarga tayoqchalar bilan urib chalinadi. Tovushqatorlar 14ta simdan iborat. Torlarning umumiy soni esa 40ta.

Xulosa o'rnida aytish joizki, cholg'u asboblari yaxlit bir tizim sifatida musiqa yo'nalishida alohida ahamiyatga egadir. Cholg'u asboblari har bir xalqning azaliy an'analari, qadriyatlari va g'ururini shakllantirib bera oladigan tizim. Cholg'ular xalq hayotida estetik vazifa bajaradi. Musiqiy cholg'ular inson ma'naviyatini ohanglarda tarannum etadi. Xalq cholg'ulari yillar davomida o'ziga xos tarzda rivojlangan. Ammo oradan

shuncha vaqt o'tganiga qaramay cholg'u asboblari o'zining asl mazmun-mohiyatini yo'qotgani yo'q. Musiqa insonning nozik tuyg'ularini shakllantirish manbasidir. Musiqiy cholg'ular inson ijodi mahsuli sanaladi. Hozirgi kunda rivojlanish eng yuqori cho'qqilarga ko'tarilgan paytda ham cholg'u asboblari o'zining ahamiyatini mustahkam tarzda saqlab turibdi. Yurtimizda bo'lib o'tadigan xalqaro musiqa festivallarida ham milliy cholg'u asboblarmizdan keng foydalaniladi. Umuman olganda musiqa cholg'ulari xalqning moddiy ma'naviy boyligi bo'lib hisoblanadi. Ular o'zida ma'lum tarixiy jarayonlarni aks ettiradi va tariximizni anglashda hamda milliy madaniyatimiz rivojlanishida muhim o'rin tutadi.

References:

1. Toshmatov "Ko'hna cholg'ular ijrochiligi" Tafakkur Toshkent-2018
2. Rizayeva "Yosh xonandaning kamoloti" Cho'lpon nashriyoti Toshkent-2003
3. Odilov "O'zbek xalq cholg'u asboblari ijrochilik" O'qituvchi nashriyoti Toshkent-1995.